



OYBEK VA LIDIYA BAT IJODIDA NAVOIY OBRAZINING BOLALIK VA
YOSHLIK DAVRI BADIY TALQINI

Otajonova Feruza Odilbekovna

Urganch RANCH texnologiya universiteti o'qituvchisi

[\(feruzaotazonova@gmail.com\)](mailto:feruzaotazonova@gmail.com)

Тел: (+99894)233-94-93

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek va rus adabiyotida Alisher Navoiy siymosining murg'aklik, maktab yillari va yoshlik davri badiiy biografiyasini yaratish tamoyillari qiyosiy aspektda tadqiq etilgan. Tadqiqot manbasi sifatida Oybekning "Navoiy" romani va Lidiya Batning "Hayot bo'stoni" qissasi olingan. Maqolada bo'lajak mutafakkir xarakteri va dunyoqarashining shakllanishida oilaviy muhit, tabaqaviy ziddiyatlar, ilk quvg'inlik azoblari hamda Fariduddin Attorning "Mantiqut-tayr" asarining g'oyaviy-psixologik o'rni qiyosiy o'rganilgan. Yozuvchilarning biografik xronologizm va epik ko'lamdorlik xususiyatlaridan foydalanish mahorati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: bolalik davri, badiiy biografiya, xronologizm, Mantiqut-tayr, qiyosiy tahlil, tarixiy shaxs, biografiya, syujet, dinamika, xalqchillik, psixologik.

Аннотация: в данной статье в сравнительном аспекте исследуются принципы создания художественной биографии Алишера Навои в узбекской и русской литературе в периоды его младенчества, школьных лет и ранней юности. В качестве источников исследования выбраны роман Ойбека «Навои» и повесть Лидии Батъ «Сад жизни». В работе сравнительно изучается роль семейной среды, сословных противоречий, первых тягот изгнания, а также идейно-психологическое значение поэмы Фаридуddина Аттара «Мантирут-тайр» в формировании характера и мировоззрения будущего мыслителя. Освещается мастерство авторов в использовании биографического хронологизма и эпической масштабности.

Ключевые слова: детство, художественная биография, хронологизм, Мантикут-тайр, сравнительный анализ, историческая личность, биография, сюжет, динамика, народность, психологический.

Annotation: this article examines the principles of creating a fictional biography of Alisher Navoiy during his infancy, school years, and early youth in Uzbek and Russian literature from a comparative perspective. Oybek's novel "Navoiy" and Lidiya Bat's story "The Garden of Life" were used as the research sources. The study comparatively analyzes the role of the family environment, class contradictions, the first hardships of exile, and the ideological-psychological significance of Fariduddin Attor's poem "Mantiqut-tayr" in shaping the character and worldview of the future thinker. The authors' mastery in utilizing biographical chronologism and epic scale is highlighted.

Keywords: childhood, fictional biography, chronologism, Mantiqut-tayr, comparative analysis, historical figure, biography, plot, dynamics, popularity, psychological.



Tarixiy shaxslarning mukammal badiiy siymosini yaratishda ularning bolalik va yoshlik yillarini estetik idrok etish adabiyotshunoslikning eng muhim nazariy-metodologik muammolaridan biri hisoblanadi. Zero, buyuk mutafakkirlar dunyoqarashi, estetik ideali va ijtimoiy-siyosiy maslagining fundamental poydevori aynan murg'aklik va o'spirinlik davridagi ijtimoiy-madaniy muhit ta'sirida shakllanadi. Alisher Navoiy siymosini epik ko'lamda jonlantirgan akademik Oybek hamda biografik janr ustasi Lidiya Bat o'z asarlarida ulug' shoir hayotining ilk davrlarini tasvirlashda turlicha badiiy konsepsiyalardan kelib chiqqanlar. Mazkur ikki ijodkorning yosh Alisher shaxsiyati, uning ma'naviy uyg'onish pallasini qanday tamoyillar asosida tasvirlaganini qiyosiy o'rganish va matndagi parchalarning aniq sahifalarini dalillash bugungi qiyosiy adabiyotshunoslik uchun g'oyatda muhimdir.

Lidiya Batning "Hayot bo'stoni" qissasi kompozitsion qurilishiga ko'ra qat'iy xronologik biografizm tamoyiliga tayanadi. Adiba asar syujetini Alisherning yetti-sakkiz yoshlik murg'ak davridan – Temuriylar saltanatida Shohruh Mirzo vafotidan keyin boshlangan ichki urushlar va Alisherlar oilasining Hirotidan Iroq tomon surgun qilinishi fojiasidan boshlaydi [2, 6-b.]. Bu yondashuv qahramon xarakterining bosqichma-bosqich, ma'naviy va jismoniy o'sish dinamikasini to'g'ridan to'g'ri kuzatish imkonini beradi.

Akademik Oybek esa "Navoiy" romanida butunlay boshqacha epik strategiyani qo'llaydi. Roman voqealari bevosita Alisher Navoiyning Samarqanddan qaytib, Hirotida rasmiy davlat va madaniy faoliyatini boshlagan, ya'ni yetuk shaxs darajasiga yetgan burilish pallasidan boshlanadi. Biroq Oybek Navoiyning bolaligi va yoshligini butunlay e'tiborsiz qoldirmaydi. Yozuvchi qahramonning murg'aklik yillarini, uning badiiy va intellektual poydevorini asar syujeti ichiga xotiralar, lirik chekinishlar va o'tmishga qaytish usullar vositasida mahorat bilan singdirib yuboradi [1, 36-b.].

Lidiya Bat asarida yosh Alisher qalbida adabiyotga, tasavvufiy dunyoqarashga bo'lgan ilk muhabbatning uyg'onishi Farididdin Attorning "Mantiqut-tayr" ("Qushlar tili") dostoni bilan bevosita bog'lanadi. Karvon quvg'inda borayotganida, Taft shahrida mashhur tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiy bilan uchrashuv lavhasi g'oyatda ramziydir. Sakkiz yoshli bolakayning ushbu murakkab falsafiy asarni yoddan xonish qilishi buyuk olg'a siljishning muqaddimasi sifatida ko'rsatiladi [2, 6-b.].

Adiba bu o'rinda jiddiy dramatik ziddiyatni yuzaga keltirgan: an'anaviy qarashlarga ega bo'lgan ota – G'iyosiddin Kichkina o'g'lining tasavvufiy she'riyatga mukkasidan ketishini "telbalik" deb baholaydi va g'azab ustida kitobni yirtib tashlaydi [2, 7-b.]. Biroq Lidiya Bat yuksak psixologizm orqali kitob moddiy shaklda yo'q qilingani bilan, Alisherning xotirasida o'chmas bo'lib muhrlanib qolganini ko'rsatadi: *"Kitob nobud bo'ldi. Bola ko'zini yumib, kitobning turli yerlaridan burun-butun sahifalarni yod takrorlay boshladi"* [2, 7-b.].

Oybek ijodida ham "Mantiqut-tayr" dostoni bosh qahramon estetik va falsafiy olamining asosi sifatida tilga olinadi. Biroq Oybek bu lavhani Navoiyning kattalik davridagi ichki kechinmalari, she'riyat bayramlari va uning keksayganda bitgan "Lisonut-tayr" asariga ishora



qilish orqali uning butun umrlik g'oyaviy yo'ldoshi sifatida falsafiy planda umumlashtiradi [1, 37-b.].

Qiyosiy tahlil jarayonida har ikki adibning Navoiy va bo'lajak sulton Husayn Boyqaroning maktablik yillaridagi muloqotini tasvirlash mahorati diqqatni tortadi. Lidiya Bat asarida yosh Alisher va Husayn maktabda birga o'qiydilar, kitobxonada soatlab mutolaa qildilar [2, 25-b.]. Biroq adiba ularning xarakteridagi tub ijtimoiy-psixologik farqlarni bolalik paytidanoq ko'rsatishga intiladi. Masalan, saroy bog'idagi suhbatda yosh Husaynning: *"Men podsho bo'lganimda, sen bosh kitobdorim bo'lasan"* degan so'zlariga javoban, Alisherning: *"Men kishilar ustidan hukmron bo'lmoqni istamayman. Kaminaning birdan-bir orzusi – ularga aql-idrok nuri sari yo'l ochib bermoqdir"* deb javob berishi keltirilari [2, 25-b.]. Bu detal orqali Lidiya Bat Husayndagi taxtparastlik va shon-shuhratga bo'lgan moyillik hamda Navoiydagi gumanistik, ma'rifatparvarlik tabiati go'daklikdanoq shakllanganini asoslaydi.

Bunga parallel ravishda, asardagi ilk ov lavhasida yosh Husaynning sahroda ilon uchragan joyda "xazina qidirish" poyiga tushishi va asossiz boylik ketidan quvishi [2, 34-b.], Navoiyning esa tabiat go'zalligidan ma'naviy zavq olishi ikki xil dunyoqarashning to'qnashuvi sifatida berilgan.

Oybek romonida esa Husayn va Navoiyning bolalikdagi do'stligi, ma'naviy uyg'unligi ularning talabalik, yoshlik davri xotiralari orqali eslanadi [1, 37-b.]. Oybek ularning munosabatini shaxsiy illat darajasida emas, balki feodal saltanat tizimining shafqatsiz qonuniyatlari buyuk do'stlikni qay darajada jarohatlagani prizmasida chuqur ijtimoiy-falsafiy drammatizmga aylantiradi.

Lidiya Bat Navoiyning bolalik yillaridagi ma'naviy olamini boyitish, uning xalqchil xarakterini ochish uchun to'qima obrazlardan unumli foydalanadi. Keksaygan, sodiq xizmatkor Hoshim bobo va uning olti yoshli murg'ak nabirasi Zamira obrazlari aynan shunday funksiyani bajaradi [2, 17-b., 27-b.]. Alisherning yosh qizcha Zamira bilan muloqoti, uning hayotini xavfdan saqlab qolishi va ular o'rtasidagi "namakdan so'ng qiyomatlik aka-singil tutunish" an'anaviy marosimi murg'ak Alisher qalbidagi tabaqasiz, sof insoniy, gumanistik fazolarni ko'rsatuvchi yorqin detaldir [2, 28–29-b.].

Oybek esa to'qima obrazlarni (Sultonmurod, Dildor) Navoiyning yetuklik yillaridagi ijtimoiy kurash maydoniga olib kiradi [1, 8-b., 55-b.]. Ammo ularning ham g'oyaviy vazifasi Lidiya Batdagi kabi – markaziy qahramonning quyi tabaqa vakillariga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatini, ya'ni xalqchilligini asoslashdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy obrazining bolalik va yoshlik davrini tasvirlashda har ikki adib o'ziga xos estetik tamoyillarga tayangan. Lidiya Bat biografik xronologizmga tayanib, bo'lajak shoir shaxsiyatidagi gumanizm va ilmga tashnalik mezonlari hamda uning Husayn Boyqaro bilan dunyoqarashlaridagi fundamental farqlar aynan bolalik yillaridagi hayotiy voqealar ya'ni surgunlik, kitobning yirtilishi, ilk muloqotlar tasvirlari asnosida poydevor bo'lib shakllanganini chizib beradi. Akademik Oybek esa qahramonning shakllanish ibtidosini keng epik va retrospektiv planda tasvirlab, bolalik va yoshlik lahzalarini ulug' mutafakkirning butun hayotiy faoliyati, fojiasi va ijodiy qudrati bilan ich-ichidan



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



bogʻlagan falsafiy yaxlitlik sifatida talqin etadi. Har ikki yondashuv ham adabiyotshunoslikda Alisher Navoiy siymosining psixologik koʻlamdorligini va tarixiy haqiqatning badiiy reallikka evrilish tamoyillarini boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oybek. Navoiy: Roman. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. – 496 b.
2. Bat L. Hayot boʻstoni: Qissa / Rus tilidan f.f.n. T. Jalolov tarjimasi. – Toshkent: Yosh gvardiya nashriyoti, 1968. – 232 b.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2007. – 224 b.
4. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2004. – 272 b.